



UDK:358.31

*Abduxamid MANNABOV,
Erkin tadqiqotchi*

Oliy harbiy bilim yurti dotsenti, PhD M. Sherov taqrizi asosida

IMPROVEMENT OF DESIGN, PROGRAMMING AND PLANNING TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS OF MODERN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation

In the article, the author highlighted the influence of other people, the importance of grandparents, and various socio-economic factors affecting the stability of modern families. Concepts such as big family, small family, complex family, nuclear family are analyzed in detail in the article, and the many thousand-year-old historical views of our ancestors dedicated to the strength of the family, socio-economic life, culture, spirituality and values of families for the peace of the state are analyzed in the article.

Key words: Big family, nuclear family, marginality, third party intervention, Intergenerational relations, economic saturation, Avicenna, Globalization, national identity.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОЕКТИРОВАНИЯ, ПРОГРАММИРОВАНИЯ И ПЛАНИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ СОВРЕМЕННЫХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация

В статье автор выделил влияние других людей, значение бабушек и дедушек, а также различные социально-экономические факторы, влияющие на стабильность современной семьи. В статье подробно анализируются такие понятия, как большая семья, малая семья, сложная семья, нуклеарная семья, а также многотысячелетние исторические воззрения наших предков, посвященные прочности семьи, социально-экономической жизни, культуры, В статье анализируются духовность и ценности семьи для мира государства.

Ключевые слова: Большая семья, нуклеарная семья, маргинальность, вмешательство третьей стороны, Отношения между поколениями, экономическое насыщение, Авиценна, Глобализация, национальная идентичность.

ZAMONAVIY HARBIY TA'LIM MUASSASALARINING O'QUV JARAYONIDA LOYIHALASH, DASTURLASH VA REJALASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотация

Maqolada muallif zamonaviy oilalar mustahkamligida boshqa shaxslarning aralashuvi, bobo va buvilarning ahamiyati hamda oila mustahkamligiga ta'sir etuvchi turli ijtimoiy iqtisodiy omillarni yoritib bergan. Maqolada katta oila, kichik oila, murakkab oila, nuklear oila kabi tushunchalar batafsil to'xtalinib tahlil etilgan va maqolada oila mustahkamligiga bag'ishlangan ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixiy qarashlari, davlat tinchligi uchun oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati va qadriyatlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Katta oila, nuklear oila, marginallik, uchinchi shaxs aralashuvi, Avlodlarga munosabatlar, iqtisodiy to'kinlik, Avisena, Globallashuv, milliy xoslik.

Kirish. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda dunyoda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda. Turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to'qnashuvlar yuz bermoqda, shuningdek, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'tgan 2022 yilning fevral oyidan buyon davom etayotgan Rossiya-Ukraina urushi, Isroil va Falastin o'rtasida kechayotgan jangovar harakatlar dunyo hamjamiyatini chuqur tashvishga solmoqda. Bunda Qurolli Kuchlarimiz barcha toifadagi bo'linmalarining jangovar shayligini kuchaytirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o'rinda aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoyevning "albatta, bizning Qurolli Kuchlarimiz faqat tinchlik maqsadlariga Vatanimiz mudofaasiga xizmat qiladi. Lekin, bugungi keskin va tahlikali vaziyatda biz turli tahdidlarga munosib javob berishga doimo tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini muntazam oshirib borishimiz zarur"[1] – deya

ta'kidlaganligi, shuningdek "Harbiy ta'lim va ilm-fan tizimida boshlangan islohotlarni izchil amalga oshirish, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim" – degan fikrlari[2] harbiy pedagogikaning o'rni va dolzarbligini belgilab beradi.

Aytish joizki, yurtimizda barcha bosqichdagi ta'lim jarayonini innovasion tashkil etishda pedagogika sohasidagi bilimlardan foydalanish, ularni amaliyotda qo'llash metodlarini takomillashtirish bo'yicha AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya kabi dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sohasini modernizatsiyalash, innovasion texnologiyalarni tatbiq etish, o'qitishning didaktik asoslarini global strategiyalar sifatida pedagogik amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari kuzatilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ta'lim muassasalarida harbiy kadrlarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoniga chet el armiyasi tajribalari keng qo'llab kelinmoqda. Bunda asosan,

jangovar tayyorgarlik yo'nalishida hamkor davlatlar bilan o'tkaziladigan o'quvlar, trening kurslari va mahorat darslarining ahamiyati kattadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Davlatimiz xavfsizligini ta'minlash sifatini belgilab beradigan asosiy omillardan biri harbiy xizmatchilarning o'z sohasi bo'yicha mukammal ta'lim olganligi va uni amaliyotda qo'llay olishi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak xislatlarning rivojlantirilganlik darajasi bilan bog'liq.

Ushbu jarayonda asosiy o'rin tutadigan, har bir harbiy pedagog o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun ta'lim jarayonining mazmun-mohiyatini bilishi, ta'lim jarayonini tashkil etuvchilar, ta'lim usullari, shakllari, vositalari, pedagogik jarayon ishtirokchilari, mashg'ulot turlari va ularni to'g'ri tashkillashtirish qonun-qoidalari va qonuniyatlarini bilishi, pedagogika asoslaridan unumli va samarali foydalana olishi lozim.

Ushbu maqsadda, muallif tomonidan, harbiy ta'lim muassasalari o'quv tarbiya jarayonida pedagogik menejmentning samaradorligini oshirish mavzusida tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida muallif tomonidan zamonaviy harbiy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida loyihalash, dasturlash va rejalashtirish texnologiyalarini takomillashtirish choralari ishlab chiqish maqsad etib belgilangan.

Pedagogik menejmentning eng muhim funksiyasi bu rejalashtirish funksiyasidir. Ta'lim muassasalarida rejalashtirish deganda avvalo o'quv, metodik va ilmiy faoliyat sohalaridagi resurslarni to'g'ri foydalangan holda maqsadli taqsimlash tushuniladi. Rejalashtirish bu yerda o'quv jarayonini, ilmiy faoliyatni va ta'lim muassasasi xodimlarini boshqarish metodi sifatida qo'llaniladi.

Vaqt nuqtai nazaridan rejalashtirish ta'lim muassasasining strategik (perspektiv) va joriy boshqaruv vazifalariga xizmat qiladi. Shuning uchun ham uni rejalashtirishni strategik, joriy va operativga bo'lish mumkin.

Strategik rejalashtirishni uzoq muddatga (3-5 yil va undan uzoq) ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday rejalashtirish o'zida to'g'ri va keng qamrovli prognozlarga asoslangan holda ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha

Jadval

“Reja”, “prognoz”, “dastur” tushunchalarini solishtirish

t/r	Terminlarni aniqlash	Reja	Prognoz	Dastur	Mualliflar
1	Belgilangan maqsadga erishish uchun ma'lum bir tartiblangan tizim yoki harakatlar ketma-ketligi	Kelajak haqida juda aniq bayonot, odatda atrofdagi sharoitlarning o'zgarishligi yoki ularning sekin o'zgarishi taxminiga asoslanadi	Kelajak haqida juda aniq bayonot, odatda atrofdagi sharoitlarning o'zgarishligi yoki ularning sekin o'zgarishi taxminiga asoslanadi	Maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan g'oyalari, rejalar va loyihalar ro'yxati	R. Eyres
2	Ma'lum yoki taxmin qilingan holatida vaziyatni o'zgartirishga yo'naltirilgan tizimning maqsad va vazifalarini, vositalarni qayd etish	Rejalashtirishdan oldin bo'lgan kelajak tasviri, ya'ni asosiy maqsadni tanlash va maqsad va vazifalarni iyerarxiyaga yoyish	Rejalashtirishdan oldin bo'lgan kelajak tasviri, ya'ni asosiy maqsadni tanlash va maqsad va vazifalarni iyerarxiyaga yoyish	Bitta bosh maqsadga yoki bitta bosh yo'nalishga erishishga qaratilgan iqtisodiy, loyihalash, ijtimoiy, texnik, ishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot tadbirlar kompleksini rejalashtirish	G. Pospelov, V. Irikov
3	Ishning tartibi, ketma-ketligi va vaqtini ta'minlaydigan oldindan rejalashtirilgan tadbirlar tizimi	Biror narsaning kelajakdagi rivojlanishi va natijasi haqidagi maxsus tadqiqotga asoslangan xulosa	Biror narsaning kelajakdagi rivojlanishi va natijasi haqidagi maxsus tadqiqotga asoslangan xulosa	Faoliyat va ishlar rejasi.	M. Pereverzev, N. Shaydenko, L. Basovskiy

Tushunchalarning har biri muassasa rivojlanishining ma'lum bir modelini ifodalaydi. Shu bilan birga, amaliyotda bu tushunchalar bitta tizim sifatida umumiylikda va o'zaro bog'liqlikda amalga oshiriladi. Ular ta'lim muassasasini rivojlantirish bo'yicha maqsadli dastur loyihasi shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

prognoz tizim (tashkilot) imkoniyatlarini o'rganish vositasidir, shuning uchun uni birinchi navbatda ishlab chiqish kerak;

reja – bu vazifa maqsadi va unga erishish uchun resurslarni samarali taqsimlashni ifodalaydigan formal hujjatdir;

murakkab va yuqori professional faoliyatni ifoda etadi. “Ta'lim tizimini isloh qilish sharoitida, muassasaning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqmasdan turib uning o'quv jarayonini rejalashtirish maqsadga muvofiq emasdir” deb ta'kidlaydi Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirligi Harbiy universitet o'qituvchisi O.V.Kolnoshenko[3] Boshqaruv strategiya deganda – uzoq muddatli maqsadlar va harakatlarga qaratilgan boshqaruv funksiyasi, shuningdek, raqobatchilarga nisbatan shaxs yoki shaxslar guruhining yashovchanligi va qudratini yaxshilash bo'yicha uzoq muddatli chora-tadbirlar va yondashuvlar kompleksi tushuniladi. Odatda boshqaruv strategiyasi deganda tashkilotning uzoq muddatli siyosati yoki uning katta va muhim vazifasini hal qilishga qaratilgan siyosat tushuniladi[4].

Tahlil va natijalar. Harbiy ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati strategiyasini ishlab chiqish jarayoni quyidagi tartiblarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. Prognozlash va loyihalash:

- tashqi muhitda (mamlakatda, Qurolli Kuchlarda va boshqaruv) yuzaga keladigan istiqbolli tendensiyalarni baholashni;

- ta'lim muassasasi uchun tashqi muhitdagi ijobiy va salbiy tendensiyalarni aniqlash va baholashni;

- ta'lim muassasasining potensialini va uni faoliyatning eng istiqbolli yo'nalishlarida rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashni.

2. Ta'lim muassasasini rivojlantirishning uzoq muddatli strategik maqsad va vazifalarini (loyihalar) ishlab chiqish:

- ta'lim muassasasining rivojlantirish strategiyasini (konsepsiyasini) ishlab chiqish;

- ta'lim muassasasining ta'lim faoliyati uchun perspektiv rejalari ishlab chiqish.

3. Zarur resurslar bilan ta'minlangan ssenariylar va yo'l xaritalarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, muassasaning ta'lim faoliyatini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish uchun loyihalash, rejalashtirish va dasturlash bo'yicha bir qator savollarni (muammolarni) hal etish talab etiladi.

Menejment bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda ushbu asosiy tushunchalarni tushinishga turli xil yondashuvlar mavjud (jadval).

dastur – bu belgilangan bosh maqsadlarga erishish usullarini yorituvchi va buning uchun amaldagi tizimlardan yangi tizimlarning tuzilishini belgilovchi hujjatlar to'plami.

Shunday qilib, harbiy ta'lim muassasalarining maqsadli majmuaviy dasturi deganda, vaqt va makon bo'yicha loyihalashtirilgan, ushbu ta'lim tizimining maqsad yoki maqsadlariga erishish uchun yo'naltirilgan, resurslar bo'yicha muvofiqlashtirilgan, tashkilot faoliyatining alohida konseptual mafkurasiga asoslangan markazlashgan boshqaruv ostida ijrochilar yordamida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuasi tushuniladi.

O.V. Kolnoshenkoning oliy ta'lim muassasalarida olib borgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, maqsadli kompleks

dastur tashkilotlardagi oddiy muvofiqlashtirishlarga nisbatan ko'proq muhim natijalarni olishni ta'minlaydi, shuning uchun ham unda quyidagilar erishiladi[3]:

maqsadni realizatsiya qilish jarayonini vaqt va mavjud resurslar bo'yicha optimallashtirish;

ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga (maqsadlariga) erishish uchun maqbul alternativani loyihalash, taqqoslash va tanlash;

boshqaruv mexanizmi va strukturalari yakuniy (bosh) maqsadni amalga oshirish vazifalariga bo'ysunishi;

muassasani boshqarish uchun oqilona tashkiliy tuzilmani yaratish.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, harbiy ta'lim muassasalari o'quv jarayonini loyihalashtirish, rejalashtirish va dasturlashga ilmiy yondashuvlarni tatbiq etish pedagogik

menejmentni takomillashtirish uchun asosiy yo'nalish hisoblanmoqda. Harbiy ta'lim tizimini isloh qilishda uning uzoq muddatli prognozlarini ishlab chiqish, u asosda harbiy ta'lim muassasalari o'quv faoliyatini ilmiy asoslangan strategiyasi va maqsadli dasturini ishlab chiqish muhim masala bo'lib hisoblanmoqda.

Perspektiv va joriy rejalashtirish o'quv jarayonini boshqarishning asosiy instrumenti hisoblanmoqda. Bu borada, harbiy ta'lim muassasasining boshqaruv organlarining faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirilganligini, resurlarni optimal foydalanishini, yuqori tashkilotchilikni, muassasaning barcha uchastkasining faoliyatini muvofiqlashtirilishini ta'minlovchi ilmiy prinsiplarini tatbiq etish bo'yicha takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ш.Мирзиёев. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2020. – Б. 130.
2. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 30 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табригида // Халқ сўзи газетаси, 2022, № 9 (8071). – Б. 1.
3. Колношенко О.В. Повышение эффективности педагогического менеджмента образовательного процесса в военном вузе: Диссертация. – Москва., 2008. – Б. 189.
4. М.П. Переверзев, Н.А. Шайденко, Л.Е. Басовский, Дарслик, 2-нашр, қўшимча ва қайта ишланган, Москва ИНФРА-М 2008, Б.-85.